




2020-yil yanvar-fevral oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Farg'ona viloyatida jami **621,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **104,5 %** ni tashkil etdi.



24,5
mlrd. so'm

- Yirik qurilish tashkilotlari

449,5
mlrd. so'm

- Kichik korxona va mikrofirmalar

147,2
mlrd. so'm

- Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **24,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **89,0** % ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,0%** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **0,6 %** punktga kamaygan.


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **72,3** % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **106,8** % ni tashkil etgan holda **449,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga kamayib, **23,7 %** ni tashkil etdi va **147,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **100,6 %** ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari


2020-yil (yanvar-fevral)

Davlat
mulki




95,1%

Nodavlat
mulk



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **30,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,9 %** ni tashkil etdi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **590,7** mlrd. so'm ishlar bajarilib, jami qurilish ishlari hajmining **95,1%** ni tashkil etdi.

Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd. so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihibalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **0,6 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,6 %** punktga ko'payib, **68,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamaygan **31,1%** ni tashkil etdi.



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan % da)




Bino va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **0,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **68,3 %** (**1,6 %** punktga ko'paydi) va norasmiy sektoring ulushi **31,1 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi.



Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **8,2 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **81,9 %** (**8,0 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,7 %** ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **11,6 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9 %** punktga kamaydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **88,4 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **11,9 %** punktga ko'paygani kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari

No	Shahar-tumanlar	2019-yil yanvar-fevral (mlrd, so'm)	2020-yil yanvar-fevral (mlrd, so'm)	O'sish sur'ati (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%) da
Viloyat bo'yicha jami:	501,8	621,2	104,5	100,0	
shaharlar:					
1	Farg'ona	118,8	140,0	99,2	22,4
2	Qo'qon	41,7	51,8	104,7	8,3
3	Quvasoy	49,5	59,5	101,2	9,5
4	Marg'ilon	46,2	55,8	101,6	9,0
tumanlar:					
5	Oltiariq	24,9	34,5	117,5	5,6
6	Qo'shtepa	17,7	28,0	133,9	4,5
7	Bag'dod	19,1	25,2	111,1	4,1
8	Buvayda	12,0	12,2	85,8	2,0
9	Beshariq	12,3	15,8	108,8	2,5
10	Quva	22,2	33,5	127,7	5,4
11	Uchko'prik	21,5	24,6	96,6	4,0
12	Rishton	8,3	14,2	144,0	2,3
13	So'x	10,1	9,3	77,5	1,5
14	Toshloq	11,7	16,0	115,3	2,6
15	O'zbekiston	9,2	12,8	118,1	2,1
16	Farg'ona	19,1	13,7	60,7	2,2
17	Dang'ara	32,3	32,4	85,0	5,2
18	Furqat	12,6	19,7	132,6	3,2
19	Yozyovon	12,6	22,2	148,5	3,6

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi


(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hissasi Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining **22,4 %** ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **9,5** ni, Marg'ilon shahrida **9,0 %** ni, Qo'qon shahrida **8,3%** ni, tashkil etdi. Shu bilan birga Oltiariq tumanida **5,6 %**, Quva tumanida **5,4 %**, Dang'ara tumanida **5,2 %**, Qo'shtepa tumanida **4,5%**, Uchko'prik tumanida esa **4,0 %**, Yozyovon tumanida **3,6 %**ni tashkil etdi. Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmida hissasi kam bo'lgan tumanlar xususan, Buvayda tumanida jami qurilish ishlari hajmining **2,0 %**, O'zbekiston tumanida **2,1% ni**, hamda So'x tumanida **1,5 %** ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Hududlar bo'yicha ko`radigan bo`lsak joriy davrda qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati viloyatning Yozyovon tumanida **148,5 %** ga o'sdi va jami qurilish ishlari hajmining **3,6 %** ni tashkil qildi. Rishton tumanida **144,0 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **2,3 %** ni, Qo'shtepa tumanida **133,9 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **4,5 %** ni, Furqat tumanida **132,6 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **3,2 %** ni, Quva tumanida **127,7 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,4 %** ni, O'zbekiston tumanida **118,1 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **2,1 %** ni, Oltiariq tumanida **117,5 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **5,6 %** ni tashkil etdi. Shuningdek, Farg'ona shahrida o'sish sur'ati **99,2 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **22,4 %** ni tashkil etdi. Qo'qon shahrida o'sish sur'ati **104,7 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **8,3 %** ni tashkil etdi. Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati **101,6 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **9,0 %** ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida **101,2 %** ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining **9,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)

	Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Jami viloyat	4,0	72,3	23,7
<i>shaharlar:</i>			
Farg`ona	3,9	82,1	14,0
Qo'qon	16,3	67,5	16,2
Quvasoy	1,2	85,0	13,8
Marg`ilon	0,0	85,2	14,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	0,0	57,6	42,4
Qo'shtepa	0,0	51,7	48,3
Bag`dod	7,9	81,0	11,1
Buvayda	0,0	64,9	35,1
Beshariq	9,3	45,8	44,9
Quva	0,0	63,1	36,9
Uchko'prik	0,0	89,1	10,9
Rishton	0,0	58,0	42,0
So'x	0,0	68,2	31,8
Toshloq	0,8	61,5	37,7
O'zbekiston	0,0	82,2	17,8
Farg`ona t	2,3	84,3	13,4
Dang`ara	4,8	60,0	35,2
Furqat	0,0	43,5	56,5
Yozyovon	20,1	63,4	16,5



Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi

“Investitsiyalar va qurilish statistikasi” bo'limi

Aloqa telefoni: (73) 241-98-42